


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib




Oʼsish (oʼzgarish) surʼatlari, foizda




Dastlabki maʼlumotlar

2021- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **587,1** mlrd. soʻnni tashkil etib, 2020- yil yanvar oyiga nisbatan **8,1 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **49,9** mlrd. soʻnni (**56,0 %** ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **537,2** mlrd. soʻmnin (**2,2 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **90,0** mlrd. soʻmnin (**0,3 %** ga oshdi) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda




Uyushmagan savdo, mlrd. soʻm



HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so‘m

UMUMIY MA’LUMOT

2021- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi 587,1 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2019- yil yanvar oyiga nisbatan 91,9 % ni tashkil etdi.



Chakana savdo tovar aylanmasida Urganch va Xiva shahri, Urganch, Xonqa, Gurlan, Yangiariq tumanlarida kamayish sur’atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga 91,5 % va yirik korxonalar hissasiga 8,5 % to‘g‘ri keldi.

ENG YUQORI ULUSH


Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida 30,5 % ulush bilan 178,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

ENG QUYI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush Xiva tumanida 2,2 % ulush bilan 13,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**

XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	2020- yil yanvar
		2021- yil yanvar

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keldi. Mazkur hajm 2021- yil yanvar oyi yakuniga ko'ra, **537,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar oyiga nisbatan **2,2 %** ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **91,5 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqa'l'a (99,9 %), Yangiariq (99,8 %), Bog'ot (99,0 %), Yangibozor (98,7 %) va Gurlan (98,1 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**


2020- yilning yanvar oyiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasida quyidagi hududlarda kamayish sur'atlari kuzatilib, jumladan, Urganch shahrida (78,0 %), Urganch tumani (94,5 %), Xonqa tumani (98,4 %), Xiva shahri (98,9 %), Gurlan tumani (98,9 %), Yangiariq tumani (99,4 %) ni tashkil qildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	587096,7	91,9	49 889,3	44,0	537 207,4	102,2
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	178921,2	78,0	36 419,5	39,3	142 501,6	104,1
Xiva	25099,3	98,9	1 994,0	84,8	23 105,3	100,4
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	32593,5	101,1	328,1	69,9	32 265,4	101,6
Gurlan	43825,6	98,9	818,2	107,4	43 007,3	98,8
Qo'shko'pir	28979,0	104,6	1 715,2	4,3 m.	27 263,7	99,9
Urganch	68768,5	94,5	2 061,6	29,8	66 706,9	101,2
Hazorasp	60645,5	102,1	1 934,8	84,8	58 710,7	102,8
Tuproqql'a	15794,8	101,2	13,4	-	15 781,3	101,1
Xonqa	39308,6	98,4	2 019,2	44,0	37 289,5	105,5
Xiva	13025,9	101,0	361,8	3,0 m.	12 664,1	99,1
Shovot	43362,2	102,6	2 003,0	95,2	41 359,3	103,0
Yangiariq	23409,3	99,4	42,3	7,2	23 367,0	101,8
Yangibozor	13363,4	100,1	178,3	2,2 m.	13 185,2	99,4

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **56,0 %** ga kamaydi va **49,9 mlrd. so'mni** tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,5 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **537,2 mlrd. so'mni** tashkil etib, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **2,2 %** ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,5 %** ni tashkil etdi.


CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqa'l'a (99,9 %), Yangiariq (99,8 %), Bog'ot (99,0 %), Yangibozor (98,7 %) va Gurlan (98,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahrida (20,4 %), Xiva shahri (7,9 %), Qo'shko'pir tumani (5,9 %) va Xonqa tumani (5,1 %) da kuzatildi.



2021- yil yanvar oyi holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **312,3** ming so'm (2020-yil yanvar oyiga nisbatan **9,5 %** ga kamaydi) ni tashkil qildi. Yuqori o'sish sur'ati Qo'shko'pir (103,0%), Shovot (101,0 %), Hazorasp (100,5 %) tumanlarida qayd etildi. Urganch shahar (77,1 %), Urganch (92,7 %), Xonqa (96,9 %) tumanlarida eng quyi ko'rsatkichlar kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (1 239,9 ming so'm), Urganch (344,9 ming so'm) va Hazorasp (312,4 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

XORAZM VILOYATI BO'YICHA AHOLO JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar


Asosiy tarkib, foizda




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar

2021- yilning yanvar oyida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra , jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **42,6** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **47,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdag'i tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmag'an holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	90,0	100,3	42,6	98,9	47,4	101,6
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	16,1	89,9	10,6	149,8	5,6	51,1
Xiva	1,6	103,8	1,6	103,8	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	14,8	105,2	1,4	34,9	13,3	134,5
Gurlan	3,7	50,5	1,8	39,5	1,8	69,8
Qo'shko'pir	6,1	88,5	3,7	75,2	2,4	122,5
Urganch	-	-	-	-	-	-
Hazorasp	12,9	130,5	6,8	127,7	6,0	133,7
Tuproqqal'a	2,5	112,9	2,3	119,6	0,3	76,5
Xonqa	8,9	119,3	6,3	105,4	2,6	175,9
Xiva	-	-	-	-	-	-
Shovot	19,8	104,0	6,2	110,8	13,5	101,1
Yangiariq	2,7	121,7	1,2	99,7	1,5	148,1
Yangibozor	0,9	77,7	0,6	85,3	0,4	67,9



Tuzlamalar

0,5
mlrd. so'm



Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari

20,3
mlrd. so'm



Quritilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

1,1
mlrd. so'm




6,5
mlrd. so'm

Non va non
mahsulotlari



1,5
mlrd. so'm



3,1
mlrd. so'm

Sut va sut
mahsulotlari

Tuxum



4,1
mlrd. so'm

Don mahsulotlari
(mosh, loviya, no'xat, guruch
va boshqalar)

1,2
mlrd. so'm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar

0,3
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



0,3
mlrd. so'm

Ziravorlar



3,6
mlrd. so'm

Tovuq go'shti



2021- yilning yanvar oyida viloyatning **10** ta (Xiva shahri, Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududlarda joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **47,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagи qora mollar savdosi **43,4** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **3,4** mlrd. so'mni, parrandalar **0,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:




UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar

2021- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,8 %** ni tashkil etib, **10,7** mld. so'mga yetdi va 2020- yil yanvar oyiga nisbatan **0,1 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **90,3 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar- oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar- oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2020- yil yanvar- oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	10727,0	99,9	1036,1	2,9 m.	9690,9	93,3
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	4694,9	91,0	347,0	121,1	4347,9	89,2
Xiva	607,5	100,0	-	-	607,5	100,0
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	369,0	100,4	-	-	369,0	100,4
Gurlan	284,7	100,4	-	-	284,7	100,4
Qo'shko'pir	143,2	81,1	-	-	143,2	81,1
Urganch	1962,1	96,9	64,9	96,8	1897,2	97,0
Hazorasp	499,7	93,3	-	-	499,7	93,3
Tuproqql'a	179,8	85,7	-	-	179,8	85,7
Xonqa	334,8	92,9	-	-	334,8	92,9
Xiva	307,4	99,6	-	-	307,4	99,6
Shovot	1027,5	2,6 m.	624,3	-	403,2	104,2
Yangiariq	135,5	114,5	-	-	135,5	114,5
Yangibozor	181,2	92,4	-	-	181,2	92,4

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



2021- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi

155,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar oyiga nisbatan **3,2 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **21,5 mlrd. so'mni** (**39,3 %** ga ko'payish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **133,8 mlrd. so'mni** (**0,9 %** ga kamayish) tashkil etdi.


Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo
155,3 mlrd. so'm, 100 %

Yirik korxonalar
21,5 mlrd. so'm, 13,9 %

Mikrofirma va kichik korxonalar
133,8 mlrd. so'm, 86,1 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar




**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariiga ega yirik korxonalar Xiva tumani (8,1 m.), Hazorasp tumani (5,6 m.) va Urganch shahri (2,9 m.) da kuzatildi.

Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o'zgarish sur'atlari Xiva (2,9 m.) tumanida qayd etildi.


Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	155 302,5	103,2	21 523,7	139,3	133 778,8	99,1
shaharlar:						
Urganch	63 081,1	85,7	13 883,3	2,9 m.	49 197,9	71,5
Xiva	5 743,1	85,6	60,3	72,6	5 682,9	85,8
tumanlar:						
Bog'ot	3 190,7	89,4	-	-	3 190,7	89,4
Gurlan	2 900,9	83,5	0,9	37,8	2 900,0	83,6
Qo'shko'pir	1 321,6	94,3	-	-	1 321,6	94,3
Urganch	27 595,6	90,6	7 213,7	70,1	20 381,9	101,0
Hazorasp	1 672,1	95,5	7,0	5,6 m.	1 665,1	95,2
Tuproqqal'a	1 426,8	94,5	1,2	-	1 425,6	94,5
Xonqa	6 752,4	91,4	351,1	129,4	6 401,3	90,0
Xiva	33 300,5	2,9 m.	1,8	8,0 m.	33 298,6	2,9 m.
Shovot	2 868,6	91,8	3,9	-	2 864,7	91,7
Yangiariq	2 063,1	91,9	0,1	-	2 063,0	91,9
Yangibozor	3 385,8	91,5	0,5	11,4	3 385,4	91,6



**YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES
SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar oyi yakuniga ko'ra, **133,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar oyiga nisbatan **0,9 %** ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **86,1 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Xiva shahar, Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir, Hazorasp, Tuproqqa'l'a, Xiva, Shovot, Yangiariq, Yangibozor (100,0 %) tumanlarda yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Urganch shahri (91,1 %), Urganch (95,4 %) tumaniga to'g'ri keldi.

Yirik korxonalar	Mikrofirma va kichik korxonalar	2020- yil yanvar
		2021- yil yanvar

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.: (62) 227-78-85**